

Antik Davr Adabiyoti Va Namoyondalari

Beknazarova M. K.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi oliy tamlim va sog'liqni saqlash vazirligi oliy o'quv yurtlari oldiga malakali, xalqaro standartlarga mos mutaxassisni tayyorlash vazifasini qo'yadi. Meditsina oliy o'quv yurtlarida echimini kutayotgan asosiy muammolardan biri bu lotin-yunon tibbiy terminlarini o'qitish hisoblanadi.

Lotin tilida tibbiy terminlarni o'qitishdan tashqari mustaqil ta'lim darslarida Lotinlar va Rim madaniyati, adabiyoti, san'ati va tarixi ham o'rgatib o'tiladi. Maqolamning bugungi mavzusi butun insoniyatga birday qiziqarli deb o'ylaydigan taqvim haqidadir.

Til insoniyatning asrlar mobaynida to'plagan ma'naviy boyliklari va madaniyatini saqlab qolish uchun xizmat qiladi. Millatning barcha moddiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy boyliklari, an'analari avlodlarga til orqali me'ros bo'lib qoladi.

Biz talabalar mustaqil ish uchun ajratilgan soatlardan to'g'ri foydalanish maqsadida antik Rim asarlari, ahamiyatiga, dunyo fanlariga bog'liq matnlar tarjimasi bilan shug'illanamiz.

Kalit so'zlar: yunon adabiyoti, Gomer, Evripid, Sofokl, Pindar; Rim jamiyati Yunon jamiyati, ellinizm davri, Rim adabiyoti, Odessiya, epitetlar, o'xshatishlar va boshqa poetik vositalar Elliada.

Rimliklar necha yuz yillar davomida yunon adabiyoti yaratgan tayyor badiiy meros andazalaridan o'rnak olib, ana shu qimmatbaxo namunalar asosida o'zlarining milliy adabiyotlarini yaratdilar. Rim adabiyotining beshigini tebratgan, uni atak-chechak qildirgan va nihoyat, voyaga yetkazishga ko'maklashgan kishilar chindan ham Gomer, Evripid, Sofokl, Pindar va yunon adabiyotining boshqa ulug' zotlari bo'lgan. Biroq har ikkala xalqning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivoji hamda halokati o'rtasida umumiy o'xshashlik bo'lishiga qaramasdan, Rim qo'ldorlik jamiyatining o'sishi va yemirilish jarayoni tamomila boshqa bir tarixiy sharoitda, boshqacha bir geografik muhitda sodir bo'lgan, butunlay o'zgacha sur'at bilan taraqqiy etgandir. Modomiki shunday ekan Rim jamiyati Yunon jamiyati bosib o'tagan yo'dan borsa ham, Rim taraqqiy etib borgan. Bunga asosiy sabab Rim jamiyati qaysi bir merosni qabul qilmasinlar, avvalo bu merosni o'zlarining milliy ehtiyojlariga, g'oyaviy va mafkuraviy talablariga, tarixiy sharoitlariga moslashtirib borganlar, uni lotin ananalariga monand taraqqiy ettirganlar. Xullas Rim adabiyoti yunonlarning barcha yuqlaridan va shu bilan birga ellinizm davri adabiyotinnig barcha bo'loqlaridan foydalanib, ham shakl, ham mazmun jihatdan yana bir daraja yuqorii bosqichga ko'tariladi va yangi dunyo Evropa adabiyotiga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan qudratli bir adabiyotga aylanadi.

Darhaqiqat, o'yg'onish davrinig qalam ahli o'z faoliyatlarida Rim adabiyoti na'munalariga taqlid etganlar. Faqat XVIII asrga kelib, burjua gumanistlari (Lessing, Giyote, Shiller) bevosita yunon adabiyotiga murojaat qila boshlaydilar.

Bundan tashqari yozma adabiyot yaratilishidan ancha ilgari Italiya tuprog'ida yashovchi qabilalarning ham boy og'zaki ijodi bo'lganligi shubhasizdir. Biroq yunon adabiyotining tziqi ostida mahalliy og'zaki adabiyot e'tibordan qolib, bizga uning kamdan kam na'munasi yetib kelgan.

Keling biz "asl Rim" adabiyotida ko'p to'xtalib o'tirmasdan, yozma badiiy ijodning dastlabki davri bayoniga o'tsak.

Odessiya- qariyib ikki asr davomida Rim maktablarida asosiy o'quv kitobi bo'lib xizmat qilgan. Bu asarni rimlik Liviy Andronik tarjima qilar ekan, uning asl nusxaning butun xususiyatini saqlab qolishga emas, balki uni Rim davlatining madaniy ehtiyojiga moslashtirish, begona xalqning ma'naviy merosi yordamida o'zlarining adabiyotlari va milliy tillarini boyitish nuqtai nazaridan yondoshgan.

Liviy Andronik tarjimonlikdan tashqari bevosita lotin tilida sahna asarlari-tragediya va komediyalar ham yozgan. Shoirning bu sohadagi ijodiy mahsullari ham bizga kamdan-kam yetib kelgan.

Enniy-o'z ijodining boshlang'ich davrlarida davrlarida L.Andronik va Neviy yo'llarini davom ettirib, asosan yunon komediya va tragediyalarini lotin sharoitiga moslashtirish bilan shug'ullangan. Uning tragediyalari Rim teatri sahnalarida uzoq yillar umr kechiradi. Enniyni yunon shoirlaridan Evripid ko'proq qiziqtirgan. Uning Rim muhitiga moslashtirilgan qator variantlari orqali tamoshabin ulug' yunon adabiyotinnig qator asarlari "Gekuba", "Ifigeniya", "Aleksandr", "Mediya" va boshqa tragediyalari bilan tanishadi. Bizga qaadar yetib kelgan parchalardan tragediya sohasida Enniyning nihoyatda mohir san'atkor bo'lganligi, qahramonlarining ichki dunyosini ochishda, ayniqsa ularning ehtirosli jo'shqin holatlarini ko'rsatisda boshqa shoirlardan ajralib turganligini sezasis.

Enniy o'zining o'tkir poetik mahoratini "Annallar" dostonida yana ham kengroq namoyish qilgan. 60 ming misradan iborat 18 bobli salmoqdor bu asar Troya urushidan boshlanib, to shoirning zamonasiga qadar davom etgan butun rim tarixini o'z ichiga oladi. Enniy bu asarni yaratishga kirishar ekan yolg'iz ulug' Gomerning poetik ko'magiga suyanadi. Asarning debochasida hikoya qilinishicha, guyo Enniy bir tush ko'radiyu, tushida muzalar uni Helikon tog'iga olib chiqadilar va bu yerda uning huzuriga Gomer kirib kelib, o'z ruhining Enniy tanasiga ko'chganligini aytadi. Annallarning muallifi mazkur debocha bilan "Iliada" va "Odessiya" usulida doston yozmoqchi bo'lganini, yunon shoiri izidan borib Rim elining ikkinchi Gomeri bo'lish orzusida ekanligini izhor qiladi.

Enniy, darhaqiqat, Gomer dostonlari usulidan epitelar, o'xshatishlar va boshqa poetik vositalardan katta ustalik bilan foydalanar ekan, ko'zlagan maqsadlariga erishishda katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Biroq Enniy o'zining dostonchilik janriga kiritgan bu yangiliklari bilan cheklanib qolmasdan lotin she'riyati qurilishini ham tubdan o'zgartirib, eski saturn vaznini yunon gekavmetri bilan almashtiradi. Vatan adabiyotida birinchi marta Enniy tomonidan joriy etilgan bu islohat Rim poeziyasining kelgusi taraqqiyoti yo'lida juda katta imkoniyatlar tug'diradi. Darhaqiqat, agar biz Enniy epik dostonidan saqlanib qolgan parchalarni ko'zdan kechirsak, keng manzaralar, keskin dramatik holatlar, chuqur ruhiy kechinmalar va umuman yerik poetik lavhalarni yaratisda lotin heksametri tufayli erishganligiga guvoh bo'lamiz.

Plavt-ulug' rim komediyana-visi Italiyaning Umriya viloyatida to'g'iladi. Uning hayotiga bog'liq ma'lumotlar juda oz. Qadim zamonlarda yuzdan ortiq komediyani uning nomi bilan bog'laganlar. Ammo eramizdan oldingi I-asrda mashhur Rim olimi va adabiyotshunosi Varron shulardan faqat yigirma bittasi Plant qo'li bilan yozilganligini aniqlaydi. Ularning deyarli hammasi to'la hoida bizgacha yetib kelgan. Plavt Italiya hayotidan olingan mavzularda asar yozib, turmushdagi nojo'jaliklarni qoralash, arboblarning sirlarini ochish asarlarining asosiy motivi edi. Shu sababli yunon komediyalari, xuddi Neviy singari Plavt uchun ham chalg'ituvchi bir niqob vazifasini o'tagan. Plavt qaysi ellin komediyasini Rim sahnasiga olib chiqmasin, asl nusxasidagi holatlarni, masalan shaharlarning nomi, qahramonlarning ismi, yunon odatlari, kiyim-kechaklarini o'zgartirmasdan qoldiradi. Faqatgina Rim idora tartiblariga, Rim sud tizimi, madaniyati va Rim hayotining turli turli sohalariga xos holatlarni ham asar ruhiga singdirib yuborish-Plavt ijodining muhim hislatidir.

Shunday qilib Rim va Yunon adabiyoti bir-birini to'ldirib, biri ikkinchisiga beshik bo'lib rivojlanib kelgan.

Adabiyotlar Ro'yxati

1. Бекназарова, М. . (2023). ВАЖНОСТЬ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ И ОБЩЕЙ КУЛЬТУРЫ ВРАЧА. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(6 Part 3), 146–148. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/17270>
2. Kenjayevna, B. M. Aitmuratova Perkhon Genjebayevna THE MAIN METHODS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING *International Journal of Language, Linguistics, Literature and Culture*, 2.
3. Бекназарова М.К. (2024). ОПРОС-КАК МЕТОД ПОВЕЩЕНИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ . *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 22(5), 56–59. Retrieved from <https://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5811>
4. Beknazarova Moxiya Kenjayevna. (2024). LOTIN-YUNON TILLARINING DUNYO MADANIYATIDAGI O'RNI . *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 22(5), 53–55. Beknazarova Moxiya Kenjayevna. (2024). LOTIN-YUNON TILLARINING DUNYO MADANIYATIDAGI O'RNI . *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 22(5), 53–55. Retrieved from <https://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5810>
5. Beknazarova Moxiya Kenjayevna. (2024). LOTIN-YUNON TILLARINING DUNYO MADANIYATIDAGI O'RNI . *Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi*, 22(5), 53–55. Retrieved from <https://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5810>
6. Beknazarova, M. K. (2022). THE MOST IMPORTANT CRITERIA FOR EVALUATING STUDENT KNOWLEDGE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 35-37.
7. Maxmudov Zafar, & Normurodova Sohiba. (2023). KUNDALIK TURMUSHDA KENG QO'LLANILISHDA BO'LGAN SUYUQLIKLARNI IFODALOVCHI DORI SHAKLLARI HAQIDA CHET EL ILMIY NASHRLARIDAN OLINGAN FIKRLAR. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8035529>
8. Makhmudov, Z. ., Tuychiyev, K., & Usmanov, S. . (2023). SOME OF THE MOST USED FORMS OF MEDICINE IN MEDICAL PRACTICE - THE USE OF TABLETS AND SOLUTIONS. *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*, 2(13), 20–26. извлечено от <http://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/7225>
9. Yaxyayevna, N. S., & Khalid, T. (2023, November). Topic prescription structure of prescription. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 5, pp. 210-214).
10. Yaxyayevna, N. S. (2023). ANALYZING DIALECTS AND WRITTEN DOCUMENTS IN MIDDLE ENGLISH PERIOD. *Journal of Universal Science Research*, 1(6), 458-463.
11. Yakhyaevna, N. S. (2023). History of english writing documents in the middle ages. *Research Focus*, 2(10), 41-45.
12. Yaxyayevna, N. S. (2024). Language Teaching Methods. *Miasto Przyszłości*, 45, 897-901.
13. THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS Авторы: Aitmuratova Perkhon Genjebayevna Дата публикации 2022/11/3 Журнал
14. PROPOSITIVE STRUCTURE AND SYNTACTIC DEVICES OF SPEECH DERIVATION (<https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/1378>) Авторы: Kurbanova Raxima Abdullaevna Дата публикации 2022/2/28 Журнал *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* Том10.Номер 2-Страницы 764-768
15. Yaxyayevna, N. S., & Alam, M. A. (2023). INTRODUCTION INTO ANATOMICAL HISTOLOGICAL TERMINOLOGY. NOUN, GRAMMAR CATEGORIES OF NOUNS. DETERMINATIONS OF GENDER, STEM, VOCABULARY FORMS. *Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi*, 1(7), 107-111.